




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-oktabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 trln. 810,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 87,9 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 36,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 19,2 % ga pasayish kuzatildi.


Bundan tashqari, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 13,2 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 10,0 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 168,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ini tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qum-tosh va boshqa toshlar - 7,4 m.ga, chaqiq tosh - 1,5 m.ga, koʻmir qazib olish - 8,7 % ga hamda tabiiy qum - 2,8 % ga oshgan boʻlsa, neft qazib olish - 13,0 % ga, qattiq tuz (osh tuzidan tashqari) - 24,4 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	203,3	220,9	17,6
Neft, ming t.	69,0	60,0	-9,0
Qattiq tuz (osh tuzidan tashqari), ming t.	25,7	19,4	-6,3
Qum, ming t.	40,6	41,8	1,2
Chaqiq tosh, ming t.	61,9	93,8	31,9
Yodgorliklar, pardozlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar, ming t.	0,2	1,4	1,2



Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 trln. 347,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,9 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi - 0,2 % ni (2019- yil yanvar-oktabr oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % (0,4 %), o'rta-quyi texnologiyali - 22,1 % (24,6 %) va quyi texnologiyalisi - 65,2 % (59,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,9 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 105,7 %), yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,3 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 91,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 42,8 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 150,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 28,8 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 96,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,6 % (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 130,4 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 20,5 ming tonna paxta tolasi (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 909,1 %), 29,3 ming tonna chakana savdo uchun qadoqlanmagan yigirilgan ip (129,5 %), 112,4 ming tonna un (118,1 %), 144,7 ming tonna portlandsement ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	2,3	20,5	18,2
Tozalangan paxta yog'i, ming t.	4,6	5,9	1,3
Un, ming t.	95,2	112,4	17,2
Portlandsement, ming t.	0,0	144,7	144,7
Dizel yoqilg'isi, ming t.	8,4	1,8	-6,6
Sut, t.	500,8	479,5	-21,3
Sariyog', ming t.	1,0	3,3	2,3



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 235,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi - 30,3 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	2,5	0,004	-2,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	51,8	27,9	-23,9



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	2,1	3,1	0,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	21,5	21,6	0,1
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,0	7,7	1,7
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	11,7	17,6	5,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 29,1 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 50,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 44,0 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - 0,3 % ga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar - 35,7 % ga oshganligi, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar (79,2 %) kamayganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 487,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 95,8 % ni tashkil etgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,0 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,8 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 4,6 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 20,9 % ni, shuningdek, Denov tumani 17,3 % ni, Sho'rchi tumani 15,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (95,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz shahri (104,2 %), Qumqo'rg'on (133,4 %), Bandixon (108,4 %), Qiziriq (100,4 %), Sho'rchi (99,0 %), Sariosiyo (98,7 %), Uzun (97,3 %), Muzrabot (96,9 %), Boysun (96,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1487,7	100,0	95,8
Termiz sh.	311,7	20,9	104,2
tumanlar:			
Angor	47,7	3,2	94,9
Bandixon	2,1	0,2	108,4
Boysun	47,1	3,2	96,7
Denov	257,2	17,3	85,3
Jarqo'rg'on	112,2	7,5	89,5
Qumqo'rg'on	72,0	4,8	133,4
Qiziriq	36,5	2,5	100,4
Muzrabot	29,9	2,0	96,9
Oltinsoy	59,6	4,0	88,6
Sariosiyo	71,2	4,8	98,7
Termiz	92,1	6,2	92,4
Uzun	52,4	3,5	97,3
Sherobod	72,5	4,9	85,3
Sho'rchi	223,5	15,0	99,0



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 641,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020- yil yanvar-oktabr mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	3810,2	108,6
Termiz sh.	805,1	115,7
tumanlar:		
Angor	83,4	106,6
Bandixon	2,1	105,5
Boysun	62,0	104,0
Denov	513,4	105,0
Jarqoʻrgʻon	706,5	106,4
Qumqoʻrgʻon	296,2	156,2
Qiziriq	140,3	114,3
Muzrabot	94,0	127,7
Oltinsoy	61,8	104,8
Sariosiyo	238,8	101,7
Termiz	129,9	104,3
Uzun	96,9	118,6
Sherobod	268,5	104,3
Shoʻrchi	311,3	116,5



**Surxondaryo viloyati hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining ko'payishiga, Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 156,2 %), Muzrabot (127,7 %), Uzun (118,6 %), Sho'rchi (116,5 %), Qiziriq (114,3 %) tumanlarida va Termiz shahrida (115,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada ko'payganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da		Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati, % da
156,2	Qumqo'rg'on	133,4
127,7	Muzrabot	96,9
118,6	Uzun	97,3
116,5	Sho'rchi	99,0
115,7	Termiz sh.	104,2
114,3	Qiziriq	100,4
106,6	Angor	94,9
106,4	Jarqo'rg'on	89,5
105,5	Bandixon	108,4
105,0	Denov	85,3
104,8	Oltinsoy	88,6
104,3	Termiz	92,4
104,3	Sherobod	85,3
104,0	Boysun	96,7
101,7	Sariosiyo	98,7

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Qumqo'rg'on (2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 133,4 %), Bandixon (108,4 %), Qiziriq (100,4 %) tumanlarida hamda Termiz shahrida (104,2 %) oshdi.



**Surxondaryo viloyati jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,1 %), Jarqo'rg'on (18,5 %) hamda Denov (13,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Bandixon (0,05 %), Boysun (1,6 %) hamda Oltinsoy (1,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (4 452,6 ming so'm), Jarqo'rg'on (3 220,3 ming so'm), Termiz (1 674,5 ming so'm), Sho'rchi (1 482,6 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1438,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 561,8 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida - 1723,7 ming so'mni, Termiz tumanida - 1187,4 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 1064,5 ming so'mni, Denov tumanida - 664,0 ming so'mni tashkil etdi.




**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, ming so'm)

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Surxondaryo viloyati	1438,8	561,8
Termiz sh.	4452,6	1723,7
tumanlar:		
Angor	626,6	358,4
Bandixon	27,5	27,2
Boysun	533,8	405,5
Denov	1325,1	664,0
Jarqo'rg'on	3220,3	511,3
Qumqo'rg'on	1257,1	305,5
Qiziriq	1225,3	319,1
Muzrabot	659,8	209,8
Oltinsoy	347,8	335,5
Sariosiyo	1133,6	337,9
Termiz	1674,5	1187,4
Uzun	562,6	304,0
Sherobod	1378,2	372,2
Sho'rchi	1482,6	1064,5



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 trln. 566,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bandixon, Uzun, Oltinsoy tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Boysun tumanida (94,7 %), Termiz tumanida (90,8 %), Angor tumanida (89,9 %), Qiziriq tumanida (66,5 %) kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sherobod (25,9 %), Shoʻrchi (26,4 %), Jarqoʻrgʻon (26,4 %), Qumqoʻrgʻon (29,6 %) tumanlari hamda Termiz shahrida (30,7 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi
tashkil etilgan sanoat korxonalari**
(2020- yil 1- noyabr holatiga koʻra)

Bugungi kunda viloyatda 3956 ta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 684 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 17,3 % i) Termiz shahriga, 481 tasi (12,2 %) Denov tumaniga toʻgʻri kelmoqda.



2020- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1637 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 242 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 14,8 %) Denov tumanida, 188 tasi (11,5 %) Termiz shahrida, 135 tasi (8,2 %) Sho'rchi tumanida, 132 tasi (8,1 %) Qumqo'rg'on tumanida, 123 tasi (7,5 %) Oltinsoy tumanida hamda 116 tasi (7,1 %) Boysun tumanida tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (76) 225-65-76